UO‘K 378.147

AKADEMIK YOZUVNI O‘QITISHDA TADQIQOT KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI: EMPIRIK TAHLIL

Musoyeva Aziza Botirovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-3845-0790;
musoyeva@samdchti.uz

Maqolada O‘zbekistonning uchta oliy ta’lim muassasasida faoliyat yuritayotgan 35 nafar o‘qituvchi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘qituvchilarning tadqiqot kompetensiyasi qay darajada shakllangani va bu kompetensiya talabalar faoliyatiga qanchalik singib borayotgani o‘rganildi. O‘qituvchilar ilmiy ishda raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini yuqori baholaydi, ammo ularning kuzatuvicha, talabalar amaliyotida ilmiy vositalar deyarli uchramaydi: talabalarning 91,4 foizi kundalik raqamli vositalardan, atigi 8,6 foizi ilmiy vositalardan foydalanadi. Javoblarning ishonchliligi alohida tekshirilgan va mazkur tafovut so‘rovnoma kamchiligidan kelib chiqmagani aniqlangan. Xulosada o‘quv dasturiga kiritilishi lozim bo‘lgan aniq takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: *tadqiqot kompetensiyasi, akademik yozuv, oliy ta’lim o‘qituvchisi, raqamli vositalar, iqtibos boshqaruvi dasturlari, kompetensiyani uzatish, javoblar sifati, o‘quv dasturi.*

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ АКАДЕМИЧЕСКОМУ ПИСЬМУ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

В статье анализируются результаты опроса 35 преподавателей трёх высших учебных заведений Узбекистана. Исследование посвящено тому, насколько у преподавателей сформирована исследовательская компетентность, и в какой мере она закрепляется в работе студентов. Преподаватели высоко оценивают свои умения использовать цифровые инструменты в научной работе, однако, по их наблюдениям, в практике студентов научные инструменты почти не встречаются: 91,4 % студентов пользуются повседневными цифровыми средствами и лишь 8,6 % — научными. Качество ответов проверялось отдельно; установлено, что выявленное расхождение не объясняется недостатками инструмента опроса. В заключении сформулированы конкретные предложения по изменению учебных программ.

Ключевые слова: *исследовательская компетентность, академическое письмо, преподаватель вуза, цифровые инструменты, программы управления библиографией, передача компетентности, качество ответов, учебная программа.*

PROBLEMS OF DEVELOPING RESEARCH COMPETENCE IN TEACHING ACADEMIC WRITING: AN EMPIRICAL ANALYSIS

This article analyzes the results of a survey conducted among 35 instructors working across three higher education institutions in Uzbekistan. The study examined the extent to which instructors' research competence is developed and how effectively this competence is being transferred to student work. While instructors rate their own skills in using digital tools for academic research highly, they observe that specialized academic tools are almost entirely absent from student practice: 91.4% of students rely on everyday digital tools, whereas only 8.6% utilize academic tools. The reliability of the responses was verified separately, confirming that this discrepancy did not stem from flaws in the survey design. Finally, the conclusion offers specific recommendations for integration into the curriculum.

Keywords: *research competence, academic writing, higher education instructor, digital tools, citation management software, competence transfer, response quality, curriculum.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Bu vazifani hal etish oliy ta’limning dastlabki bosqichidan boshlanadi: bo‘lajak mutaxassis talabalik yillaridayoq ilmiy matn ustida ishlashni o‘rganishi

lozim. Tadqiqot kompetensiyasi akademik yozuv ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liq: tizimli sharhlar bu ikki ko‘nikma birgalikda shakllanishini ko‘rsatadi [2].

Ushbu masalani avvalgi ishlarimizda talabalar nuqtayi nazaridan o‘rgangan edik. O‘zbekistonning besh oliy ta’lim muassasasida 800 nafar talaba so‘rovnomani to‘ldirgan, 114 nafar talaba esa obyektiv testni bajargan. Natijalar talabalarning o‘zlariga bergan bahosi test orqali o‘lchangan bilim darajasidan ancha yuqori ekanini ko‘rsatdi. Ayniqsa, talabalar o‘zlarida bor deb hisoblagan raqamli ko‘nikmalar ular amalda foydalanadigan vositalar haqidagi ma’lumotlar bilan tasdiqlanmadi [3].

Bu natija e’tiborni o‘qituvchiga qaratadi: talabalarning tayyorgarligi yetarli emas ekan, sababi o‘qitish jarayonida bo‘lishi mumkin. Bunday qarash keng tarqalgan, ammo u hozirgacha empirik tarzda tekshirilmagan. Mazkur maqolada oliy ta’lim o‘qituvchilarida tadqiqot kompetensiyasi qay darajada shakllanganini va, eng muhimi, u talabalar faoliyatiga qanchalik singib borayotganini aniqlashni maqsad qilib qo‘ydik. Tadqiqot uch savolga javob izlaydi: o‘qituvchilar o‘z ilmiy ko‘nikmalari va o‘qitish amaliyotini qanday baholaydi; talabalarning qiyinchiliklari hamda foydalanadigan vositalari haqida nima deydi; o‘qituvchidagi kompetensiya talabalar ishida o‘z aksini topadimi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot kompetensiyasi ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u tadqiqot savolini shakllantirish, adabiyotlar sharhi, metodologik mulohaza yuritish, ma’lumotlarni tahlil qilish va ilmiy muloqot ko‘nikmalarini qamrab oladi [2]. Bu tushunchaning ikki tomoni bor: shaxsning o‘zi haqidagi tasavvuri va uning obyektiv o‘lchangan darajasi. Bo‘lajak o‘qituvchilar orasida uzoq muddat davomida olib borilgan kuzatuv bu ikki tomon faqat amaliy tajriba to‘plangan sari bir-biriga yaqinlashishini ko‘rsatdi [4]. Xalqaro tadqiqotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning tadqiqot metodlari haqidagi bilimi ancha past ekani qayd etilgan [5].

Ishimizning nazariy asosi sifatida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi bo‘yicha Yevropa ramkasi (DigCompEdu) olindi. Ramkada 22 ta kompetensiya olti sohaga ajratilgan [6]. Ular orasida oltinchi soha, ya’ni ta’lim oluvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirishga ko‘maklashish, o‘qituvchining o‘z raqamli ko‘nikmalaridan alohida kompetensiya sifatida belgilangan. Boshqacha aytganda, o‘qituvchining raqamli vositalarni bilishi va ularni talabaga o‘rgata olishi bir xil narsa emas. Ana shu farq ishimizning asosiy tahlil o‘qini tashkil etadi.

O‘qituvchilar talabalarning qiyinchiliklarini qanday izohlashi ham alohida o‘rganilgan. 79 ta ishni qamrab olgan tizimli sharh natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilar talabaning muvaffaqiyatsizligini ko‘pincha uning o‘ziga bog‘liq sabablar bilan izohlaydi. Tajribasi ortib borgan sari esa o‘qituvchi o‘z metodikasidan tashqaridagi sabablarga ko‘proq murojaat qiladi [7]. Talabalar akademik yozuvda duch keladigan qiyinchiliklarni ichki va tashqi omillarga ajratish Budjalemba va Listyani tomonidan taklif etilgan [8]; so‘rovnomamizda ana shu tasnifga tayanganmiz.

Iqtibos boshqaruvi dasturlari bo‘yicha tadqiqotlar bir qonuniyatni qayd etadi: bu vositalar haqida yaxshi bilgan taqdirda ham foydalanuvchilar soni past bo‘lib qolaveradi [9]. Ganadagi ikki texnika universitetida o‘tkazilgan tadqiqot esa xabardorlik va foydalanish darajasini avvalo ta’lim muassasasi ko‘rsatadigan o‘quv va texnik yordam belgilashini aniqladi [10]. Demak, muammo shaxsiy qiziqish bilan emas, balki ta’minot va o‘quv dasturi darajasida hal qilinadi.

O‘zbekiston sharoitida bu masala hozirgacha asosan talabalar nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. O‘qituvchilarda tadqiqot kompetensiyasi qay darajada shakllangani va u talabalar faoliyatiga qanday singib borishi empirik tekshirilmagan. Ishimiz ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ish miqdoriy strategiyaga asoslangan bo‘lib, bir bosqichli so‘rovnoma shaklida tashkil etildi. So‘rovnomani 2023-yil 31-maydan 11-noyabrgacha bo‘lgan davrda uchta oliy ta’lim muassasasining 35 nafar o‘qituvchisi Google Forms platformasi orqali to‘ldirdi. Ular quyidagi muassasalarda faoliyat yuritadi: Samarqand davlat chet tillar instituti (26 nafar), O‘zbekiston Milliy universiteti (7 nafar) va O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (2 nafar).

So‘rovnoma yigirma savoldan iborat bo‘lib, oltita blokni qamrab oladi. Ular quyidagilar: demografik ma’lumotlar; akademik yozuvni o‘qitish tajribasi; talabalarning yozuvdagi qiyinchiliklari hamda ularning ichki va tashqi omillari; talabalar foydalanadigan raqamli vositalar; o‘qituvchining ilmiy ishda raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalari (o‘nta band, “ha / yo‘q / ishonchim komil emas”); o‘qitish amaliyotining muntazamligi (beshta band, “doim / ba’zan / kamdan-kam”). Qiyinchiliklar va omillarga oid bandlarni Budjalemba va Listyani tasnifi asosida moslashtirganmiz [8].

Tahlil uchun ikkita yig‘ma ko‘rsatkich hisoblandi. Birinchisi o‘qituvchining ilmiy ishda raqamli vositalardan foydalanish ko‘rsatkichi bo‘lib, o‘nta banddan tashkil topgan (Kronbax alfasi 0,73). Ikkinchisi o‘qitish amaliyoti ko‘rsatkichi bo‘lib, beshta bandni qamrab oladi (alfa 0,77). Har ikki ko‘rsatkichning ichki mosligi ta’lim tadqiqotlari uchun qabul qilingan chegaradan yuqori.

Javoblarning ishonchliligi alohida tekshirildi. So‘rovnomaning munosabat blokida bir-biriga zid uchta juft fikr bor. Ikkala fikrga ham rozilik bildirgan respondent bir vaqtda to‘g‘ri bo‘la olmaydigan ikki javob bergan hisoblanadi. Bunday tekshiruv usulini talabalar namunasida ilgari qo‘llaganmiz. Hisob-kitoblar Python muhitida bajarildi. Guruhlar orasidagi farqlar taqsimot shakliga bog‘liq bo‘lmagan mezonlar yordamida baholandi.

Tadqiqot etikasi quyidagicha ta’minlandi. Ishtirok ixtiyoriy bo‘lgan. Respondentlar tadqiqot maqsadi, ma’lumotlar anonim yig‘ilishi hamda istalgan bosqichda ishtirokni to‘xtatish huquqi haqida oldindan xabardor qilingan. Shaxsni aniqlashga imkon beruvchi ma’lumotlar to‘planmagan. So‘rovnoma o‘tkazish ishtirokchi muassasalar rahbariyati bilan kelishilgan.

Ish cheklovlarini boshidanoq qayd etamiz. Namuna hajmi kichik (n = 35) va u ehtimoliy usulda shakllantirilmagan. Respondentlarning 35 nafaridan 33 nafari ayol bo‘lgani sababli jins bo‘yicha tahlil o‘tkazilmadi, muassasalar bo‘yicha taqsimot ham notekis. Javoblar ikki to‘lqinda kelib tushgan (2023-yil iyun va noyabr) va muassasa mansubligi to‘lqin bilan deyarli to‘liq mos keladi, shu bois muassasalararo qiyoslashdan voz kechdik. Nihoyat, talabalar amaliyoti haqidagi ma’lumotni o‘qituvchilar bergani sababli u bilvosita dalil hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Namuna tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Respondentlar tavsifi (n = 35)

Ko‘rsatkich	Toifa	Soni	Ulushi, %
Yosh	20–25	4	11,4
	26–30	8	22,9
	31–35	14	40,0
	36–40	7	20,0
	41 va undan yuqori	2	5,7
Ilmiy daraja	Magistr	23	65,7
	Doktorantura darajasi	11	31,4
	Bakalavr	1	2,9
Pedagogik staj	1–5 yil	11	31,4
	6–10 yil	13	37,1
	11–15 yil	6	17,1
	16–20 yil	4	11,4
	21 yil va undan yuqori	1	2,9
Ingliz tili darajasi	Advanced	25	71,4
	Upper-intermediate	6	17,1
	Intermediate	4	11,4

Manba: muallif tomonidan olingan empirik ma’lumotlar asosida hisoblangan.

Respondentlarning 26 nafari (74,3 %) akademik yozuv kursini olib boradi. Tadqiqot kompetentsiyasi tushunchasi bilan tanishlik darajasi yuqori: 19 nafar (54,3 %) asosiy mazmunini biladi, 13 nafar (37,1 %) yaxshi tanish, atigi 2 nafar bu tushunchani eshitmagan.

O‘qituvchilar o‘zlarining raqamli tadqiqot ko‘nikmalarini yuqori baholaydi (2-jadval). O‘nta banddan o‘rtacha 8,23 tasiga ijobiy javob berilgan.

2-jadval. O‘qituvchilarning raqamli tadqiqot savodxonligi (n = 35)

Ko‘nikma	“Ha” javobi	Ulushi, %
Video/audio konferensiya xizmatlaridan foydalanish	33	94,3
Ishonchli manbalardan foydalanish	32	91,4
Plagiat nima ekanini tushunish	32	91,4
Kalit so‘zlar orqali manba topish	32	91,4
Internetdagi qaysi ma’lumot manba bo‘la olishini farqlash	31	88,6
O‘z maqolasini topshirishdan oldin plagiatga tekshirish	30	85,7
Onlayn materiallar mualliflik huquqidan xabardorlik	29	82,9
Ilmiy tarmoqlarda profilga ega bo‘lish	26	74,3
Iqtibos tahlili dasturlaridan foydalanish	24	68,6
Onlayn so‘rovnoma yaratish	19	54,3

Manba: muallif tomonidan olingan empirik ma’lumotlar asosida hisoblangan.

O‘qitish amaliyoti ham muntazam deb baholanadi: respondentlarning 71,4 foizi yozma topshiriq berish bilan birga uni bajarish yo‘lini doimo ko‘rsatib berishini, yana 71,4 foizi matn tuzilishi bo‘yicha doimo qayta aloqa berishini bildirgan. Beshta banddan o‘rtacha ko‘rsatkich 15 balldan 13,11 ni tashkil etdi.

Talabalar haqidagi baholar esa ancha ehtiyotkor. O‘qituvchilarning 21 nafari (60,0 %) talabalar uchun yozma topshiriqlar qiyin ekanini qayd etadi. Talabalar yozuvidagi qiyinchiliklar va ularning omillari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Talabalar yozuvidagi qiyinchiliklar va ularning omillari (n = 35)

Ko‘rsatilgan qiyinchilik yoki omil	Soni	Ulushi, %
Qiyinchiliklar: parafrazlash va xulosalash	18	51,4
Qiyinchiliklar: matn izchilligi va bog‘lanishi	17	48,6
Qiyinchiliklar: til vositalari (imlo, grammatika, leksika)	16	45,7
Qiyinchiliklar: adabiyotlar sharhini yozish	11	31,4
Qiyinchiliklar: iqtibos keltirish va havola berish	11	31,4
Qiyinchiliklar: mos manbalarni topish	10	28,6
Ichki omil: bilim va g‘oyalar yetishmasligi	28	80,0
Ichki omil: o‘ziga ishonchsizlik	12	34,3
Ichki omil: motivatsiya pastligi	8	22,9
Tashqi omil: o‘quv materiallari	20	57,1
Tashqi omil: sinf muhiti	14	40,0
Tashqi omil: o‘qituvchining o‘qitish uslubi	5	14,3
Tashqi omil: o‘qituvchi qayta aloqasining yetishmasligi	5	14,3

Manba: muallif tomonidan olingan empirik ma’lumotlar asosida hisoblangan.

Jadvaldan ko‘rinadiki, barcha 35 respondent kamida bitta ichki, ya’ni talabaning o‘ziga tegishli omilni ko‘rsatgan, ammo o‘z o‘qitish faoliyatiga tegishli biror omilni faqat 13 nafari (37,1 %) qayd etgan. Ikkala turdagi omilni birga ko‘rsatmagan 22 respondentning barchasi bir xil yo‘nalishda – talabaning foydasiga emas, uning zarariga – javob bergan. Bu farq statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli ($p < 0,001$).

Eng muhim natija talabalar foydalanadigan raqamli vositalarga tegishli (4-jadval).

4-jadval. O‘qituvchi kompetensiyasi va talabalar amaliyotidagi vositalar

Vosita yoki ko‘nikma	O‘qituvchi, %	Talaba, %
Google (qidiruv tizimi)	91,4	57,1
Google lug‘ati	—	54,3
Onlayn saytlar	—	51,4
Google tarjimon	—	42,9
Grammatika tekshirgich (Grammarly)	—	31,4
QuillBot	—	20,0
Plagiatga tekshirish vositalari	85,7	8,6
Iqtibos boshqaruvi dasturlari (Mendeley, Zotero)	68,6	5,7
Kamida bitta oddiy vosita	—	91,4
Kamida bitta ilmiy vosita	—	8,6

Manba: muallif tomonidan olingan empirik ma’lumotlar asosida hisoblangan.

Talabalarning 91,4 foizi kamida bitta oddiy raqamli vositadan foydalanadi, ilmiy vositalardan foydalananlar esa atigi 8,6 foizni tashkil etadi. Iqtibos boshqaruvi dasturlari amalda uchramaydi: Mendeley va Zoteroni jami ikki respondent qayd etgan. Holbuki, o‘qituvchilarning 85,7 foizi o‘z ishini plagiatga tekshirishini, 68,6 foizi iqtibos tahlili dasturlaridan foydalana olishini bildirgan. Yigirma sakkiz holatda o‘qituvchi plagiat tekshirish vositasidan foydalanadi, lekin uning talabalari foydalanmaydi; teskari holat bir marta uchraydi. Iqtibos boshqaruvi dasturlari bo‘yicha bunday nomutanosiblik yigirma uch holatda kuzatiladi va teskari holat umuman yo‘q. Har ikkala tafovut statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli ($p < 0,001$).

Bu natijani o‘qituvchilarning o‘zini ortiqcha baholashi bilan izohlash mumkinmi degan savol tug‘iladi. Shu sababli javoblar sifati alohida tekshirildi. Bir-biriga zid uchta juft fikr bo‘yicha respondentlarning 68,6 foizi to‘liq izchil javob bergan; hech bo‘lmasa bir marta o‘ziga zid javob berganlar 31,4 foizni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich muallifning talabalar namunasida olingan natijasidan sezilarli yaxshi: u yerda har bir juft

bo‘yicha nomuvofiqlik 51–59 foizni tashkil etgan edi [12]. Muhimi, o‘ziga zid javob bergan o‘qituvchilar raqamli kompetentsiya ko‘rsatkichini oshirib ko‘rsatmagan: nomuvofiq guruhda o‘rtacha 8,27, izchil guruhda 8,21 (farq ahamiyatsiz). Nomuvofiq javob berganlar tahlildan chiqarilganda umumiy ko‘rsatkich 8,23 dan 8,21 ga o‘zgaradi, xolos. Demak, o‘qituvchi kompetentsiyasi bilan talaba amaliyoti o‘rtasidagi tafovut o‘lchov nuqsoni emas.

Nihoyat, o‘qituvchining ilmiy darajasi, pedagogik staji va ingliz tili darajasi na raqamli kompetentsiya, na o‘qitish amaliyoti ko‘rsatkichi bilan bog‘liq emasligi aniqlandi (barcha qiyoslashlarda farqlar ahamiyatsiz). Yagona ahamiyatli bog‘liqlik teskari yo‘nalishda: pedagogik staj ortgan sari tadqiqot kompetentsiyasi tushunchasi bilan tanishlik darajasi pasayadi ($p = 0,038$).

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, muammoning ildizi o‘qituvchining bilim yetishmasligida emas. O‘qituvchilar ishonchli manbani tanlashni, plagiat nima ekanini va iqtibos qoidalarini biladi hamda bu bilimni o‘z ishida qo‘llaydi. Biroq shu bilim talabaning kundalik ish uslubiga o‘tmayapti. Talaba Google, lug‘at va tarjimondan foydalanadi, iqtibos boshqaruvi dasturlari va plagiatga tekshirish vositalari esa uning ish qurollari qatoriga kirmaydi.

Bu holatni DigCompEdu ramkasi yordamida izohlash mumkin. Ramkada o‘qituvchining o‘z raqamli kompetensiyasi va ta’lim oluvchining raqamli kompetensiyasini shakllantirishga ko‘maklashish alohida sohalar sifatida ajratilgan [6]. Ma’lumotlarimiz ana shu ajratishni amalda tasdiqlaydi: dastlabki sohalar bo‘yicha ko‘rsatkich yuqori bo‘lgani holda oltinchi soha bo‘yicha natija past. Ya’ni kompetensiya bor, ammo u talabaga yetib bormayapti.

Buning bir sababi qiyinchilik sabablarini izohlashdagi nomutanosiblikda ko‘rinadi. Barcha respondentlar talabaning qiyinchiligini uning o‘ziga bog‘lagan, uchdan bir qismigina o‘z faoliyatiga oid biror omilni tilga olgan. Bu natija o‘qituvchilarning sabab izohlari bo‘yicha xalqaro tizimli sharh xulosalariga mos keladi [7]. Muammo talabada deb qaralsa, uni hal qilish ham talabadan kutiladi va o‘quv jarayonini qayta ko‘rib chiqish zarurati sezilmaydi. Holbuki, respondentlarning 80 foizi ko‘rsatgan “bilim va g‘oyalar yetishmasligi” aynan o‘qitish orqali bartaraf etiladigan omildir.

Ikkinchi sabab baholash tizimiga borib taqaladi. Talaba baholanadigan narsanigina o‘rganadi. Kurs topshirig‘ida iqtibos boshqaruvi dasturidan foydalanish talab qilinmasa va uning natijasi baholanmasa, talabada bu dasturni o‘rganishga ehtiyoj tug‘ilmaydi. Ganada o‘tkazilgan tadqiqot ham shunday xulosaga olib keladi: talabalarning bu vositalardan xabardorligi va ulardan foydalanishi muassasa ko‘rsatadigan o‘quv va texnik yordamga bevosita bog‘liq [10]. Xabardorlikning o‘zi yetarli emasligi boshqa tadqiqotlarda ham qayd etilgan [9].

Pedagogik staj bilan tadqiqot kompetensiyasi tushunchasidan xabardorlik orasidagi teskari bog‘liqlik alohida izohni talab qiladi. Bu, ehtimol, atama bilan bog‘liq holatdir. “Tadqiqot kompetensiyasi” tushunchasi o‘qituvchilar tayyorlash amaliyotiga yaqinda kirib kelgan: o‘qishni yaqinda tugatgan yosh o‘qituvchilar u bilan tanish, uzoq yillik tajribaga ega o‘qituvchilar esa xuddi shu ishni boshqa atamalar bilan ataydi. Namuna hajmi kichik bo‘lgani sababli bu izoh taxmin bo‘lib qolaveradi va alohida tekshirishni talab qiladi.

Nihoyat, javoblar ishonchliligini tekshirish natijasi mustaqil ahamiyatga ega. Talabalar namunasida o‘tkazgan tahlilimiz o‘z-o‘zini baholash ro‘yxatlari va muntazamlik shkalalari ancha oshirib ko‘rsatilishini aniqlagan edi [11]. Xuddi shu usul o‘qituvchilar namunasiga qo‘llanganda esa bunday holat kuzatilmadi. Demak, o‘zini oshirib baholash barcha respondentlarga xos umumiy xususiyat emas: amaliyotdagi o‘qituvchi o‘z ishi haqida talabaga qaraganda ishonchliroq ma’lumot beradi. Bu metodik jihatdan foydali xulosa bo‘lib, ayni paytda asosiy natijamizni ham mustahkamlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosaga olib keladi: oliy ta’lim o‘qituvchilarida tadqiqot kompetensiyasi shakllangan, biroq u talabalar faoliyatiga singib bormayapti. O‘qituvchilarning 85,7 foizi o‘z ishini plagiatga tekshiradi, talabalarning esa atigi 8,6 foizi shunday vositalardan foydalanadi. Iqtibos boshqaruvi dasturlari talabalar ishida deyarli uchramaydi. Bu tafovut javoblar ishonchliligi tekshirilgandan keyin ham saqlanib qoldi, ya’ni u haqiqiy holatni aks ettiradi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari suramiz. Birinchidan, iqtibos boshqaruvi dasturlari va plagiatga tekshirish vositalari bilan ishlashni akademik yozuv hamda tadqiqot metodologiyasi kurslarining baholanadigan topshiriqlariga kiritish lozim. Bu ko‘nikmani talabaning mustaqil o‘rganishiga qoldirmasdan, kurs natijasi sifatida belgilash kerak.

Ikkinchidan, mazkur talab o‘qituvchining shaxsiy tashabbusiga emas, fan dasturi matniga bog‘lanishi zarur. O‘qituvchida tegishli bilim bor, yetishmayotgani esa uni o‘quv jarayonida qo‘llash bo‘yicha aniq ko‘rsatmadir.

Uchinchidan, malaka oshirish kurslarida e’tiborni o‘qituvchining o‘z raqamli ko‘nikmalariga emas, balki ularni talabaga o‘rgatish metodikasiga qaratish maqsadga muvofiq. DigCompEdu ramkasi atamalari bilan aytganda, ehtiyoj dastlabki sohalarda emas, oltinchi sohada sezilmoqda.

To‘rtinchidan, talabalar qiyinchiligini izohlashda muvozanatni tiklash zarur. Respondentlarning 80 foizi ko‘rsatgan “bilim va g‘oyalar yetishmasligi” pedagogik ta’sir doirasidagi omildir. Uni faqat talabaning kamchiligi deb qarash esa muammoni hal qilish yo‘lini yopadi.

Keyingi tadqiqotlarda o‘qituvchilardan olingan ma’lumotlarni talabalarning bevosita javoblari bilan qiyoslash, shuningdek namunani kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-5073447

2. Castillo-Martínez I.M., Ramírez-Montoya M.S. Research Competencies to Develop Academic Reading and Writing: A Systematic Literature Review // Frontiers in Education. – 2021. – Vol. 5. – Article 576961. – DOI: 10.3389/feduc.2020.576961.

3. Мусоева А.Б. Исследовательская компетентность и академическое письмо студентов вузов Узбекистана: результаты эмпирического исследования // Замонавий таълим. – 2026.

4. Matjašič M., Vogrinc J. Supporting the Development of the Perceived and Actual Research Competence of Pre-Service Teachers // Education Sciences. – 2025. – Vol. 15, No. 6. – Article 652. — DOI: 10.3390/educsci15060652.

5. Gussen L., Schumacher F., Großmann N., Ferreira González L., Schlüter K., Großschedl J. Supporting pre-service teachers in developing research competence // Frontiers in Education. – 2023. – Vol. 8. – Article 1197938. — DOI: 10.3389/feduc.2023.1197938.

6. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / Punie Y. (ed.). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – EUR 28775 EN. – DOI: 10.2760/159770.

7. Wang H., Hall N.C. A Systematic Review of Teachers’ Causal Attributions: Prevalence, Correlates, and Consequences // Frontiers in Psychology. – 2018. – Vol. 9. – Article 2305. – DOI: 10.3389/fpsyg.2018.02305.

8. Budjalemba A.S., Listyani L. Factors Contributing to Students’ Difficulties in Academic Writing Class: Students’ Perceptions // UC Journal: ELT, Linguistics and Literature Journal. – 2020. – Vol. 1, No. 2. – P. 135–149.

9. Williams L., Woods L. Reference management practices of students, researchers, and academic staff // The Journal of Academic Librarianship. – 2024. – Vol. 50, No. 3. – Article 102879. – DOI: 10.1016/j.acalib.2024.102879.

10. Buadi D., Ocloo P.D. Use of Reference Management Software among Students: Experiences from Ghana’s Technical Universities // International Journal of Information Science and Management. – 2024. – Vol. 22, No. 3. – P. 177–196.

11. Musoyeva A.B. Problems and Solutions in Testing Future Teachers’ Knowledge in the National System of Foreign Language Proficiency // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Vol. 8, No. 12. – P. 209–215.

12. Musoyeva A. Enhancing research competence through reflective practice: a framework for pre-service teacher development // The Lingua Spectrum. – 2025. – Vol. 9, No. 1. – P. 252–259.